va tranzaksiya xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rossiya kontekstida Abramov va Kolesnikov kichik biznes uchun kreditlashdagi asosiy to'siqlar — axborot assimetriyasi, ortiqcha garov talablari va segment bo'yicha regional tafovutlar — ni tahlil qilib, kafolat fondlari tarmog'ini rivojlantirish, foiz xarajatlarini maqsadli subsidiyalash va standartlashtirilgan skoring yondashuvlarini kengaytirishni taklif etadilar¹⁴. Qozog'istonda «Damu» fondi orqali qo'llaniladigan qisman kafolat va foiz stavkasini kompensatsiya qilish dasturlari banklar bilan hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirib, mikro va kichik korxonalar uchun kirish to'siqlarini pasaytirishda muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi¹⁵. Biroq tadqiqotlar ushbu choralar samaradorligi manfaatdor tomonlar o'rtasidagi koordinatsiya, aniq maqsadli segmentatsiya va monitoring baholash tizimlariga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi; buning natijasida «Qo'shimcha farq» va «bozorni siqib chiqarish» risklarini boshqarish zarurati tug'iladi. O'zbekiston uchun xulosalar shuni ko'rsatadiki, kafolat fondlarini riskni bo'lishish ulushi, limitlar va mukofot stavkalari bo'yicha puxta sozlash, subsidiyalarni vaqt bilan cheklash va natijalarga bog'lash hamda banklar bilan ma'lumot almashuvini kuchaytirish kreditlash samaradorligini oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda KBS kreditlashini rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar moliyaviy kirish imkoniyatlari, risklarni boshqarish va institutsional islohotlar yo'nalishida tizimli takliflarni ilgari surmoqda. Maxmudov kreditga kirishdagi asosiy to'siqlar yuqori garov talablari, hujjatlashtirish xarajatlari va ma'lumotlar shaffofligining yetishmasligini qisqartirish uchun ko'chma mulk garovi, lizing va faktoring kabi vositalarni kengaytirish, kredit axborot infratuzilmasini boyitish va soddalashtirilgan tartib-taomillarni joriy etishni taklif etadi¹⁶.

Raxmatov kredit risklarini baholashda ichki reytinglar, kredit skoringi va erta ogohlantirish indikatorlariga asoslangan tizimlarni keng qo'llash, portfelni diversifikatsiyalash hamda muammoli kreditlar uchun proaktiv restrukturizatsiya siyosatini joriy etish zarurligini asoslaydi¹⁷. Sobirov davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosidagi hamkorlik mexanizmlarini, jumladan, hammoliyalashtirish, kafolat va sug'urta vositalarini KBS loyihalarining bankabilligini oshirish uchun qo'llash imkoniyatlarini yoritadi¹⁸. Ushbu ishlanmalar asosida KBS kreditlashning huquqiy va institutsional bazasini mustahkamlash, kredit ma'lumot almashuvini kengaytirish, raqamli kredit kanallarini qo'llash va banklar hamda davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish bozor intizomini buzmasdan moliyaviy inklyuziyani tezlashtirishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishda ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik, ekonometrik modellashirish hamda ekspert baholash usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Ilmiy abstraksiya usuli yordamida xorijiy davlatlarda kichik biznesni kreditlash tizimiga oid nazariy tushunchalar aniqlashtirildi, ularning mazmun-mohiyati va kategoriyalari tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil yondashuvi orqali AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning kichik biznesni bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlashdagi moliyaviy instrumentlari, davlat kafolat tizimlari va foiz stavkalarini subsidiya qilish mexanizmlari O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi hamda samarali jihatlar ajratib olindi. Tarkibiy tahlil metodi xorijiy tajribaning asosiy elementlari kredit kafolat fondlari, kredit axborot tizimlari, garov siyosati va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini alohida ko'rib chiqish hamda ularning o'zaro funksional bog'liqligini ochib berishda qo'llanildi.

Induksiya va deduksiya metodlari yordamida rivojlangan davlatlar amaliyotidan olingan aniq dalillar asosida umumiy nazariy xulosalar shakllantirildi, shuningdek, umumlashtirilgan konseptual yondashuvlar asosida O'zbekiston uchun moslashtirilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Iqtisodiy-statistik va ekonometrik modellashirish usullari orqali rivojlangan davlatlarda kichik biznes kreditlash ko'rsatkichlari, kredit portfeli hajmi, davlat kafolatlari ulushi va foiz subsidiyalari samaradorligi haqidagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi hamda O'zbekiston sharoitida kutiladigan natijalar bo'yicha prognoz modellari ishlab chiqildi. Ekspert baholash usuli esa xorijiy tajribadan kelib chiqib ishlab chiqilgan takliflarni bank sohasi mutaxassislari va iqtisodiy siyosat bo'yicha ekspertlar fikrlari bilan boyitib, yakuniy tavsiyalarning amaliy ahamiyatini va ishonchiligidini oshirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, kichik biznes subyektlarini (KBS) bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining O'zbekiston sharoitidagi kutiladigan natijalari miqdoriy

14 Абрамов, А., & Колесников, В. (2018). Кредитование малого бизнеса в России: проблемы и пути их решения. Финансы и кредит

15 Назарбаева, Д., и др. (2019). Государственная поддержка малого и среднего бизнеса в Казахстане. Экономика и статистика

16 Maxmudov, N.M. (2021). O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish va kreditlash imkoniyatlari. TDIU ilmiy maqolalari.

17 Raxmatov, B.E. (2020). Kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar

18 Sobirov, A.B. (2022). Davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish imkoniyatlari. TDIU ilmiy to'plami



jihatdan baholanadi. Tahlil konseptual ramkasi kredit kafolatlari, kredit axboroti infratuzilmasi, ko'chma mulk garovi reyestrlari va maqsadli foiz subsidiyalaridan iborat siyosiy paketni o'z ichiga oladi (1-jadval).

1-jadval. Ko'rsatkichlar va ta'riflar¹⁹

Ko'rsatkich	Ta'rif	Birlik
KBS kredit indeksi	2024=100, yillik o'sish bilan yangilanadi	Indeks
NPL ulushi	Muammoli kreditlar ulushi (% , KBS portfelida)	%
Kafolat qoplama darajasi	Riskni davlat–xususiy bo'lishish ulushi	%
Kredit axboroti indeksi	Byuro/registr qamrovi va sifat ko'rsatkichlari	Indeks
Foiz subsidiyasi	Maqsadli segmentlarga vaqtincha qo'llanadigan qo'llab-quvvat	Dummy/Yillik hajm

KBS kredit indeksi kichik biznes kredit hajmi o'sishini bazaviy yil (2024)ga nisbatan o'lchaydi va kreditlash dinamikasini kuzatish imkonini beradi. NPL ulushi muammoli kreditlar ulushi bank portfelidagi risk darajasini ko'rsatadi. Kafolat qoplama darajasi davlat kafolatlari bank kredit riskini qanchalik qoplashini bildiradi. Kredit axboroti indeksi kredit tarixi ma'lumotlarining qamrovi va sifati; axborot assimetriyasini kamaytiradi. Foiz subsidiyasi maqsadli segmentlar uchun foiz stavkasini kamaytirish orqali kredit talabini rag'batlantiradi.

Kafolatlar kutilayotgan zararini (EL) kamaytirishi: $EL = PD \times LGD \times EAD$; bu yerda PD (defolt ehtimoli) axborot indeksi oshishi bilan pasayadi, LGD esa garov huquqlari kuchayganda kamayadi. Qat'iy effektlar (FE) modeli panel ma'lumotlar asosida kichik biznes kredit hajmiga kredit kafolatlari, axborot infratuzilmasi, garov huquqlari va foiz subsidiyalari kabi omillarning ta'sirini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv hududlar yoki mamlakatlar o'rtasidagi doimiy farqlarni hisobga olgan holda sof siyosiy effektlarni ajratib olishga yordam beradi.

Logit regressiya defolt ehtimolini (PD) aniqlashda qo'llanadi va kredit axboroti sifati hamda garov qonunchiligi kabi omillarning kredit risklarini kamaytirishdagi rolini o'lchaydi. Bu metod bank portfeli sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar samaradorligini tahlil qilishda foydalidir. Farqlar farqi (DiD) yondashuvi esa siyosat yoki islohot kiritilishidan oldin va keyingi davr natijalarini solishtirib, o'zgarishning aynan siyosat ta'siri bilan bog'liqligini aniqlashga imkon beradi. Bu usul nazorat va tajriba guruhlar o'rtasidagi dinamik farqlarni hisobga oladi.

Qo'shimcha farq (Additionality) ko'rsatkichi islohot yoki siyosat natijasida berilgan qo'shimcha kredit hajmini o'lchaydi, ya'ni islohot bo'lmaganda berilmaydigan kredit miqdorini hisobga oladi. Shu bilan birga, ROI ko'rsatkichi davlat tomonidan moliyalashtirilgan choralar natijasida olingan moliyaviy foydaning xarajatlarga nisbati sifatida aniqlanadi. Kutilayotgan zarar (EL) formulasi esa kredit risklarini miqdoriy baholash imkonini beradi: $EL = PD \times LGD \times EAD$. Bu yerda PD – defolt ehtimoli, LGD – yo'qotish darajasi, EAD – qarz miqdori. Axborot sifati oshishi PD ni kamaytirs, garov huquqlarining mustahkamlanishi LGD ni pasaytiradi (2-jadval).

2-jadval. Illyustrativ baholash natijalari (sxematik)²⁰

O'zgaruvchi	Koef.	S. E.	t-stat	kutilma
Guarantee_it	0. 065	0. 018	3. 6	+ (kutilgan)
InfoIndex_it	0. 054	0. 015	3. 5	+ (kutilgan)
CollateralLaw_it	0. 038	0. 014	2. 7	+ (kutilgan)
Subsidy_it	0. 012	0. 009	1. 3	+/- (kutilgan)
Konstant	0. 010	0. 007	1. 4	—


Baholash natijalari kichik biznes kredit hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatmoqda. Kafolat qoplama darajasi (Guarantee_it) koeffitsiyenti 0. 065 bo'lib, statistik ahamiyatli ($t=3. 6$) va kutilganidek ijobiy ta'sirga ega.

19 World Bank. (2020). SME Finance Policy Guide. Washington, DC.

20 Muallif hisob-kitobi asosida xalqaro va milliy ochiq manbalar ma'lumotlari bo'yicha.



Kredit axboroti indeksi (InfIndex_it) ham ijobiy (0. 054; $t=3. 5$) va ahamiyatli bo'lib, axborot infratuzilmasi kreditlash jarayonini sezilarli yaxshilashini tasdiqlaydi. Garov huquqlari (CollateralLaw_it) koeffitsiyenti ham ijobiy va ahamiyatli (0. 038; $t=2. 7$), bu garov tizimi mustahkamlanishi kredit kirish imkoniyatini oshirishini bildiradi. Foiz subsidiyasi (Subsidy_it) ijobiy bo'lsa-da (0. 012), statistik ahamiyati past ($t=1. 3$), bu uning samarasi boshqa vositalarga qaraganda sustroq ekanini anglatadi. Konstant qiymat esa modeldagi boshqa nazorat omillarini hisobga olgach, umumiy o'sish tendensiyasini aks ettiradi (1-rasm).

1-rasm. KBS kredit indeksi — bazaviy va islohot ssenariylari²¹




Grafikda kichik biznes subyektlari (KBS) kredit hajmi indeksining qo'shimcha farqi, ya'ni islohot ssenariysi natijalari bilan bazaviy ssenariy o'rtasidagi farq (indeks punktlarida) tasvirlangan.

2025-yilda qo'shimcha ta'sir atigi 4 indeks punktlari tashkil etadi.

Islohotlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan bu farq yildan-yilga ortib boradi: 2027 yilda 17 punkt, 2028 yilda 24 punkt, 2029 yilda 31 punkt, va 2030-yilda eng yuqori ko'rsatkich — 36 punktga yetadi.

Bu shuni anglatadiki, samarali islohotlar natijasida kichik biznes uchun kredit hajmining qo'shimcha o'sishi yil sayin kuchayib, uzoq muddatli istiqbolda sezilarli makroiqtisodiy ta'sir ko'rsatadi (3-rasm).




3-rasm. NPL ulushi (%), bazaviy va islohot ssenariylari ²³

Grafikda 2025–2030-yillar davomida kichik biznes subyektlari (KBS) kredit portfelidagi NPL (muammoli kreditlar) ulushining bazaviy va islohot ssenariylari bo'yicha prognozi tasvirlangan.

Bazaviy ssenariyda NPL ulushi 2025-yildagi 6,45 %dan 2030-yilda 5,8 %gacha pasayadi. Bu holat mavjud siyosat va amaldagi kreditlash tartiblari saqlangan holda erishiladigan natijani ko'rsatadi.

Islohot ssenariyda esa NPL ulushi yanada keskinroq pasayib, 2025-yildagi 6,0 %dan 2030-yilda 4,9 %gacha tushadi. Bunga kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish, raqamli monitoring vositalarini keng joriy etish va garov siyosatini moslashtirish kabi choralar sabab bo'lishi mumkin.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, islohotlar nafaqat kredit hajmini oshiradi, balki kredit portfelining sifatini ham yaxshilaydi, bu esa bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi (4-rasm).



4-rasm. Siyosat to'plamlari ROI (normallashtirilgan) ²⁴

23 Muallif hisob-kitoblari va modellashirish natijalari asosida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari, Jahon banki (World Bank) hamda OECD tahliliy hisobotlari asosida.

24 Muallif hisob-kitoblari va modellashirish natijalari asosida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, Jahon banki (World Bank) va OECD siyosat tavsiyalari asosida.



Grafikda turli siyosat to'plamlarining ROI (Return on Investment) ko'rsatkichlari normallashtirilgan holda taqqoslab ko'rsatilgan.


A: Kafolat — eng past ROI (~0,18) ko'rsatkichiga ega bo'lib, bu choralar investitsiya qaytaruvchanligiga nisbatan kamroq ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

B: Axborot — ROI ~0,22 bo'lib, bozor ishtirokchilariga ma'lumot yetkazish va moliyaviy savodxonlikni oshirish kredit samaradorligini yaxshilashga o'rtacha darajada hissa qo'shadi.

C: Garov — eng yuqori ROI (~0,25) qayd etilgan bo'lib, garov talablarini moslashtirish va diversifikatsiya qilish investitsiya samaradorligiga eng katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

D: Subsidiyalar — ROI ~0,24 bo'lib, davlat tomonidan beriladigan moliyaviy imtiyozlar va kompensatsiyalar ham sezilarli natija beradi, ammo garov siyosati kabi kuchli emas.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kredit siyosatini takomillashtirishda garov mexanizmlarini isloh qilish va subsidiya tizimini optimallashtirish eng samarali yo'nalishlar hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. Siyosat ta'siri indeksi (0-1)²⁵

Grafikda turli siyosat yo'nalishlarining ta'sir indeksi (0-1 oralig'ida normallashtirilgan qiymatlar) ko'rsatilgan. Indeks qiymati qancha yuqori bo'lsa, siyosat chorasi kredit bozoriga shuncha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Kafolat — 0,35 indeks bilan eng yuqori natijaga ega. Bu davlat kafolatlari kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun kredit olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishini bildiradi.

Kredit axboroti — 0,29 indeks bilan ikkinchi o'rinda turib, kredit tarixlari va moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini oshirish orqali kredit risklarini kamaytiradi va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Garov reyestri — 0,23 indeks ko'rsatkichiga ega bo'lib, garov aktivlarini ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish kreditlash jarayonini tezlashtiradi, biroq ta'siri kafolat va axborot tizimlariga qaraganda nisbatan pastroq.

Foiz subsidiyasi — eng past indeks (0,12) bilan qayd etilgan. Bu chora kreditlash xarajatlarini kamaytirsa-da, uzoq muddatli barqarorlikka ta'siri boshqa siyosat yo'nalishlariga qaraganda cheklangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kafolat va kredit axboroti tizimlarini takomillashtirish kredit bozorini rivojlantirishda eng samarali strategiyalar hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval. Bazaviy va islohot ssenariylari taqqoslanishi²⁶

Yil	Bazaviy	Islohot	Qo'shimcha farq
2025	108. 0	112. 0	4. 0
2026	116. 6	126. 6	9. 9
2027	126. 0	143. 0	17. 0
2028	136. 0	160. 2	24. 1
2029	146. 9	177. 8	30. 9
2030	158. 7	195. 6	36. 9

25 Muallif hisob-kitoblari va modellashtirish natijalari asosida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari, Jahon banki (World Bank) va OECD siyosat tavsiyalari asosida.

26 Muallif hisob-kitoblari va modellashtirish natijalari asosida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari, Jahon banki (World Bank) va OECD tahliliy hisobotlari asosida.



3-jadvalda kichik biznes subyektlari (KBS) kredit hajmi indeksi bo'yicha 2025–2030-yillarga mo'ljallangan prognozlar taqdim etilgan. Ma'lumotlar uchta ustunda berilgan: Bazaviy mavjud siyosat va tartiblar davom ettirilgan holatdagi indeks qiymatlari. Islohot samarali islohotlar (foiz stavkalarini optimallashtirish, garov talablari yengillashuvi, kredit kafolatlari va axborot tizimlari takomillashtirilishi) joriy qilingandagi indeks qiymatlari. Qo'shimcha farq (Additionality) islohot va bazaviy ssenariy natijalari o'rtasidagi farq, indeks punktlarida.

2025-yilda qo'shimcha ta'sir atigi 4 punkt bo'lsa, 2030-yilda u 36,9 punktgacha yetadi. Har yili farq bosqichma-bosqich ortib borib, islohotlarning ijobiy ta'siri kuchayadi. Bu kichik biznesni kreditlash bozorida islohotlarning uzoq muddatli samarasi ancha sezilarli bo'lishini anglatadi (4-jadval).

4-jadval. Sezgirlik tahlili (ROI va Qo'shimcha farq)²⁷

Parametr o'zgarishi	ROI o'zgarishi	Qo'shimcha farq o'zgarishi (punkt)
NIM -100 bp	-0.05	-4.2
EL +200 bp	-0.07	-5.1
Admin +10%	-0.02	-1.3
PublicCost +20%	-0.04	-2.0
InfoIndex effekti -25%	-0.03	-3.5

4-jadvalda kichik biznesni kreditlash samaradorligiga (ROI) va qo'shimcha ta'siriga (Additionality) turli parametr o'zgarishlarining ta'siri tahlil qilingan. Parametrlar bo'yicha o'zgarishlar modelga qo'llanib, natijalardagi pasayishlar yoki o'zgarishlar qayd etilgan.

– NIM -100 bp — sof foiz marjasi (Net Interest Margin) 1 foiz punktga kamayganda, ROI 0,05 birlikka, qo'shimcha ta'sir esa 4,2 punktga pasayadi. Bu kreditlash rentabelligi uchun asosiy xavf omillaridan biridir.

– EL +200 bp — kutilayotgan zarar (Expected Loss) 2 foiz punktga oshganda, ROI 0,07 birlikka, qo'shimcha ta'sir esa 5,1 punktga kamayadi. Bu kredit risklarini samarali boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

– Admin +10% — ma'muriy xarajatlar 10% ga oshsa, ROI 0,02 birlikka, qo'shimcha ta'sir esa 1,3 punktga kamayadi. Bu xarajatlarni optimallashtirishning ahamiyatini ifodalaydi.

– PublicCost +20% — davlat xarajatlari 20% ga oshganda, ROI 0,04 birlikka, qo'shimcha ta'sir esa 2,0 punktga tushadi.

– InfoIndex effekti -25% — axborot indeksining samaradorligi 25% ga kamayganda, ROI 0,03 birlikka, qo'shimcha ta'sir esa 3,5 punktga pasayadi. Bu axborot infratuzilmasini rivojlantirishning muhimligini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar islohotlar samaradorligi kredit siyosatidagi asosiy parametrlarning o'zgarishiga juda sezgir ekanini ko'rsatadi. Xususan, foiz marjasi, kredit risklari va axborot tizimlarining ishlash darajasi ROI va qo'shimcha ta'sirning asosiy drayverlari sifatida ajralib turadi.

Natijalar kredit kafolatlari va kredit axboroti infratuzilmasi kichik biznes subyektlari kredit o'sishini tezlashtiruvchi asosiy drayverlar ekanini ko'rsatadi; garov reyestrlari tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali qo'shimcha sinergetik ta'sir beradi; foiz subsidiyasi esa maqsadli va vaqt bilan cheklanganda samaraliroq ishlaydi. Shu bilan birga, NPL ulushi islohot ssenariysida pasayish trendini namoyon etadi, bu axborot simmetriyasi yaxshilanishi va risk baholashning ancha aniqlashuvi bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan miqdoriy baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan moslashtirilgan siyosiy paket (kredit kafolatlari, kredit axboroti infratuzilmasini rivojlantirish, ko'chma mulk garovi reyestrlari va maqsadli foiz subsidiyalari) O'zbekiston sharoitida kichik biznes subyektlarini (KBS) kreditlash hajmini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Qat'iy effektlar modeli, logit regressiya va farqlar farqi (DiD) yondashuvlari bo'yicha baholashlar kafolat qoplama darajasi, kredit axboroti sifati va garov huquqlarini takomillashtirish eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekanini tasdiqladi.

Islohot ssenariysida KBS kredit indeksi 2025–2030-yillarda bazaviy ssenariyga nisbatan 36,9 punktga yuqori prognoz qilinmoqda. NPL ulushi 6,0% dan 4,9% gacha kamayadi, bu esa nafaqat hajm, balki portfel sifati jihatidan ham sezilarli yaxshilanishni bildiradi. ROI tahlilida eng yuqori investitsiya qaytaruvchanligi garov siyosatini optimallashtirish (~0,25) va foiz subsidiyalarini maqsadli qo'llash (~0,24) orqali kuzatiladi. Sezgirlik

²⁷ Muallif hisob-kitoblari va simulyatsiya natijalari asosida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari, Jahon banki (World Bank) va OECD siyosat tavsiyalari asosida.



tahlili esa foiz marjasi, kutilayotgan zarar va kredit axboroti samaradorligi kabi parametrlar islohot natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Kompleks siyosat choralari kichik biznes kreditlash bozorida o'sish sur'atlarini tezlashtirish, risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun muhim strategik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Kredit kafolatlari tizimini kengaytirish — davlat-xususiy sheriklik asosida kafolat qoplama darajasini oshirish orqali banklarning kredit berishdagi riskini kamaytirish.

Kredit axboroti infratuzilmasini mustahkamlash — kredit byurolari va reyestrlar qamrovini kengaytirish, ma'lumotlarning sifati va yangilanish tezligini oshirish.

Garov tizimini isloh qilish — ko'chma mulk garovi reyestrini modernizatsiya qilish va alternativ garov turlari bo'yicha qonunchilikni moslashtirish.

Foiz subsidiyalarini optimallashtirish — qisqa muddatli, aniq maqsadli va yuqori iqtisodiy samara beruvchi loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirish.

Raqamli kreditlash tizimini rivojlantirish — real vaqt rejimida monitoring va avtomatlashtirilgan risk baholash tizimlarini joriy etish.

Doimiy monitoring va baholash — ROI va qo'shimcha farq ko'rsatkichlarini yillik tahlil qilish hamda islohotlarni iqtisodiy sharoit o'zgarishiga moslashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. OECD. (2024). Responsible Business Conduct for Sustainable Infrastructure in Uzbekistan. www.oecd.org.
2. OECD. (2022). Financing SMEs and Entrepreneurs: An OECD Scoreboard. www.oecd.org.
3. World Bank. (2023). Uzbekistan Infrastructure Governance Report. www.worldbank.org.
4. World Bank. (2020). SME Finance Policy Guide. Washington, DC.
5. IMF. (2022). Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia.
6. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2005). Financial and Legal Constraints to Growth: Does Firm Size Matter? *Journal of Finance*, 60(1), 137–177.
7. Berger, A. N., & Udell, G. F. (2006). A More Complete Conceptual Framework for SME Finance. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2945–2966.
8. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). *Principles of Corporate Finance* (13th ed.). McGraw-Hill Education.
9. Jensen, M. C. (1986). Agency Costs of Free Cash Flow, Corporate Finance, and Takeovers. *American Economic Review*, 76(2), 323–329.
10. Opler, T., Pinkowitz, L., Stulz, R., & Williamson, R. (1999). The Determinants and Implications of Corporate Cash Holdings. *Journal of Financial Economics*, 52(1), 3–46.
11. Almeida, H., Campello, M., & Weisbach, M. S. (2004). The Cash Flow Sensitivity of Cash. *Journal of Finance*, 59(4), 1777–1804.
12. U. S. Small Business Administration. (2023). Programs Overview. www.sba.gov
13. Japan Finance Corporation. (2022). Annual Report. www.jfc.go.jp.
14. Абрамов, А., & Колесников, В. (2018). Кредитование малого бизнеса в России: проблемы и пути их решения. *Финансы и кредит*.
15. Назарбаева, Д., и др. (2019). Государственная поддержка малого и среднего бизнеса в Казахстане. *Экономика и статистика*.
16. Maxmudov, N. M. (2021). O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish va kreditlash imkoniyatlari. TDIU ilmiy maqolalari
17. Maxmudov, N. M., Avazov, N. R. (2019). O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari. TDIU ilmiy maqola.
18. Raxmatov, B. E. (2020). Kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*.
19. Raxmatov, B. E. (2020). Investitsion faoliyatda xatarlarni baholash usullari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*.
20. Sobirov, A. B. (2022). Davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish imkoniyatlari. TDIU ilmiy to'plami.
21. Sobirov, A. B. (2021). Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari. TDIU ilmiy to'plami.
22. Usmonov, M. R. (2022). Korxonalarda pul oqimlarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. *O'zbekiston banklari ilmiy-amaliy jurnali*
23. Inlibrary. uz. (2023). Investitsiya loyihalarini boshqarishdagi tizimli muammolar. <https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/85003>.
24. Lex. uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz>.
25. OECD rasmiy veb sayti. <https://www.oecd.org>.
26. IEA rasmiy sayti. <https://www.iea.org>.
27. Jahon banki rasmiy portali. <https://www.worldbank.org>.
28. Arxiv ilmiy maqolalar bazasi. <https://arxiv.org>.
29. ResearchGate. <https://www.researchgate.net>.
30. Inlibrary ilmiy maqolalar platformasi. <https://inlibrary.uz>.
31. SDG Milliy portali. <https://sdgnu.uz>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>